“Ogahiyning tarixiy asarlarida o’zlashmalar” nomli monografiya nashr qilindi

Xorazm Ma’mun akademiyasi Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo’limi boshlig’i, filologiya fanlari falsafa doktori Raufjon Maxmudovning o’zbek tili tarixiy leksikasi tadqiqiga oid “Ogahiyning tarixiy asarlarida o’zlashmalar” nomli monografiyasi nashr qilindi.

Ushbu monografiyada Ogahiy tarixiy asarlari leksikasidagi o’zlashmalarning qo’llanish sabablari o’rganilgan va ularning genealogik tahlillari amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotda muarrix tarixiy asarlaridagi o’zlashmalarning tarixan qaysi til lug’aviy qatlamiga mansubligi, o’zlashmalarning tarkibiy tahlili, ulardagi ma’no hamda fonetik taraqqiyot, olinma so’zlarning tarqalish areali kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan.

Monografiya tilshunos va tarixchi mutaxassislar, mumtoz ma’naviyatimiz va madaniyatimiz hamda o’zbek tili tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.